

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.09.2024.I.55.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

AXMEDOVA NILUFAR FARXODOVNA

**HUDUD OZIQ-OVQAT SANOATINING RIVOJLANISHINI
EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH
(QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)**

08.00.06 – “Ekonometrika va statistika”

**IQTISODIYOT FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Urganch– 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarejasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Contens of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
in economic sciences**

Axmedova Nilufar Farhodovna Hudud oziq-ovqat sanoatining rivojlanishini ekonometrik modellashtirish (Qashqadaryo viloyati misolida).....	3
Ахмедова Нилуфар Фарходовна Эконометрическое моделирование развития пищевой промышленности региона (на примере Кашкадарьинской области).....	27
Akhmedova Nilufar Farhodovna Econometric modeling of regional food industry development (in the case of Kashkadarya region).....	53
Еълон қилинган ишлар рўйхати Список опубликованных работ List of published works	57

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.09.2024.I.55.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

AXMEDOVA NILUFAR FARXODOVNA

**HUDUD OZIQ-OVQAT SANOATINING RIVOJLANISHINI
EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH
(QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)**

08.00.06 – “Ekonometrika va statistika”

**IQTISODIYOT FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Urganch– 2025

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/Iqt4687 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.urdu.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Yusupova Feruza Yo'ldoshevna**
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar: **Xatamov Ochildi Kurbanovich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ilxamova Zarnigor Po'latjon qizi
iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot: **Namangan davlat texnika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.09.2024.I.55.03 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil "_____" soat _____:_____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil 220100, Urganch sh., H.Olimjon ko'chasi 14-uy. Tel.: (998-62) 224-67-00; faks: (998-62)224-57-00; e-mail: info@urdu.uz).

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bilan Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 220100, Urganch sh., H. Olimjon ko'chasi 14-uy. Tel.: (998-62)224-67-00; faks: (998-62)224-57-00; e-mail: arm@urdu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "_____" kuni tarqatildi.

(2025-yil "_____"dagi №_____ raqamli reyestr bayonnomasi).

I. S. Abdullayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

T. J. Raximov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD., dotsent

B. Ruzmetov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi birlashgan ilmiy seminar raisi i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning zaruriy shartlaridan biri hisoblanadi. Oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabning jadal sur'atlarda o'sib borishi, sanoat xomashyosi narxlarining sezilarli darajada oshib borishi tarmoqni barqaror rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirishni taqozo yetmoqda. Jahon bankinging rasmiy ma'lumotiga ko'ra, "2023-yilda dunyo bo'yicha yalpi ichki mahsulotning qisqarishi 4,3 foizni, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining qisqarishi 4,7 foizni tashkil yetgani holda, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 1,7 foizga oshdi". Bu yesa, jahonda oziq-ovqat sanoatini rivojlantirishga katta ye'tibor qaratilayotganligidan dalolat beradi.

Jahonda aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash va qashshoqlikni kamaytirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatidan kelib chiqib, oziq-ovqat sanoatini barqaror rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan tadqiqotlarga alohida ahamiyat berilmoqda. Oziq-ovqat sanoati korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil yetishning innovatsion yondashuvlaridan foydalanish, ishlab chiqarish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash, mahsulot tannarxini pasaytirishning samarali usullarini joriy yetish, korxonalar aktivlari va qimmatli qog'ozlaridan foydalanish samaradorligini oshirish, ishlab chiqarish jarayonlarida texnik-iqtisodiy meyorlarning optimal qiymatlarini baholash yo'nalishlaridagi ilmiy tadqiqotlarga ustuvor darajada ye'tibor berilmoqda.

Yangi O'zbekistonni barpo yetish jarayonida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar, jumladan, oziq-ovqat mahsulotlarining sifatini oshirish va raqobatbardoshligini ta'minlashda sifat menejmentini zamonaviy tamoyillarini qo'llash, boshqaruv tizimini takomillashtirishga muhim ahamiyat qaratilmoqda. "...ichki bozorni oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'ldirish va narxlar barqarorligini ta'minlash, oziq-ovqat mahsulotlari zaxirasini yaratish va ichki bozorda intervensiya qilish hajmlari, asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari narxlarini barqarorlashtirish zaxiralarni shakllantirish va ulardan foydalanish qoidalarini ishlab chiqish..." kabi muhim ustuvor vazifalari belgilangan. Mazkur ustuvor vazifalarni ijrosini ta'minlashda oziq-ovqat sanoati korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini boshqarish tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga yega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2018-yil 16-yanvardagi PF-5303-son "Mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini yanada ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-son "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari, 2021-yil 22-dekabrda PQ-58-son "Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sohasida islohotlarni tadqiq qilish, strategik rejalashtirish hamda boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 9-sentabrdagi PQ-4821-son "Respublika oziq-ovqat sanoatini jadal rivojlantirish hamda aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'laqonli ta'minlashga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2021-yil 15-martda PQ-135-son "Ichki iste'mol bozorini asosiy turdagi oziq-ovqat

mahsulotlari bilan kafolatli ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-yanvardagi 37-son "Respublikada oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarini yanada qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi, 2022-yil 19-dekabrda 716-son "Asosiy turdagi oziq-ovqat va zarur mahsulotlar narxlari barqarorligini ta'minlash hamda mahsulotlar xavfsizligi va sifatini tizimli nazorat qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya mavzusi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Oziq-ovqat sanoatining rivojlanish jarayonlari modellashtirish va prognozlashning nazariy va amaliy jihatlari, tarmoqlararo balans modellarini tuzish, texnik taraqqiyot va iqtisodiy o'sishni ekonometrik tadqiq yetish masalalari G.Konvey, P.F. Druker, M. Porter, A. Lavopa, R. Neff, M. Rizou, G. Yemerson, S. Hamid singari xorijlik iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida chuqur tadqiq yetilgan.

Boshqa mamlakatlar singari sanoat ishlab chiqarish va oziq-ovqat sanoati jarayonlarini ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni modellashtirish masalalari respublikamiz iqtisodchi olimlarining bu boradagi ilmiy qiziqishlari predmeti bo'lib kelmoqda. Jumladan, mamlakatimizning taniqli iqtisodchi olimlari S.S. Gulyamov, T.SH. Shodiyev, O.M. Abdullayev, R.X. Alimov, B.Y. Xodiyev, N.M. Maxmudov, B.T. Salimov, I.S. Abdullayev, T.J.Raximov, N.M. Ziyavitdinova, I.Y.Umarov, N.I.Saidaxmedova, N. J. Sotvoldiyev, M.A.Karimov, H.N.Sabirov, N.S.Dehqanova, G'.G'.Ibragimov, M.CH.Murodova, S.F.Baltashov, T.Q.Xidirov, B.B.Ro'zimovning ilmiy ishlarida ishlab chiqarishni modellashtirish va prognozlash, murakkab yekologik vaziyatlar sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni modellashtirish, kichik biznesning rivojlanish tendensiyalarini prognozlash, barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o'sishning omillari va ekonometrik modellari, qishloq xo'jaligi hamda qishloq mehnat bozorini shakllanishi va rivojlanishini modellashtirish masalalari chuqur va keng tadqiq etilgan.

Amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari va ilmiy-nazariy izlanishlarga qaramasdan, aynan iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida hududiy oziq-ovqat sanoatining rivojlanishi keng qamrovli statistik usullardagi tahlilini takomillashtirish, iqtisodiy faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillarni ekonometrik modellar asosida baholash hamda prognozlash masalalari tizimli holda yoritilmagan, ayrim hududlar xususiyatlari o'rganilishi bilan cheklanilgan holda aynan Qashqadaryo viloyati alohida tadqiqot obekti sifatida to'laqonli o'rganilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.

Dissertatsiya mavzusi 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi dasturi hamda Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Qashqadaryo viloyatida oziq-ovqat sanoatining rivojlanish tendensiyalarini modellashtirish orqali uning kelgusidagi barqaror rivojlanishini ta'minlash yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. Belgilangan tadqiqot maqsadiga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

oziq-ovqat sanoatini ekonometrik modellashtirish samaradorligi va o'ziga xos xususiyatlarini yoritib berish;

oziq-ovqat sanoatini rivojlantirishda, hududiy shart-sharoitlar, ularga ta'sir qiluvchi omillarni hisobga olib, oziq-ovqat sanoatini ekonometrik modellashtirishning uslubiy jihatlarini takomillashtirish;

oziq-ovqat sanoatining hozirgi holati, dinamikasi va rivojlanish tendensiyalarini baholash maqsadida statistik ko'rsatkichlar tizimi va ularning ekonometrik modellarini takomillashtirish;

mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi asosida Qashqadaryo viloyatida oziq-ovqat sanoatini rivojlantirishning o'rta muddatli (2024-2030 yy) prognoz variantlarini ishlab chiqish.

oziq-ovqat sanoatining ishlab chiqarish hajmini prognozlash va uni Qashqadaryoda joriy etish muammolari va istiqbollari bo'yicha ilmiy takliflar tizimini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obekti bo'lib Qashqadaryo viloyatining oziq-ovqat sanoati tarmog'i hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti. Qashqadaryo viloyati oziq-ovqat sanoat tarmog'ining rivojlanish tendensiyalari, rivojlanishini modellashtirish va prognozlash jarayonlarini tadqiq qilish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida abstrakt-mantiqiy fikrlash, analiz, sintez, qiyosiy tahlil, induksion va deduksion usullar, kompleks yondashuv, tizimli yondashuv, umumiy ilmiy va statistik usullar, iqtisodiy va matematik modellashtirish yelementlari, ekonometrik modellashtirish va prognozlash kabi usullar qo'llanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

oziq – ovqat sanoatini rivojlantirish maqsadida tarmoqni statistik tahlillari va modernizatsiyalashni mutanosiblik koeffitsiyenti $0 \leq \text{Prob}[X,Y] \leq 1$ asosida baholash usuli taklif etilgan;

oziq – ovqat sanoati tarmoq tendensiyasini prognozlashda multiplikativ $Y = e^{5,278} * X_1^{0,107} * X_2^{-0,152} * X_3^{0,609}$ ko'p omilli empirik model ishlab chiqilgan;

hududda oziq – ovqat sanoati tizimida mahsulot diversifikatsiyasi samaradorligini oshirishning tarkibiy o'zgarishlar omili yordamida ishchilar sonining 1 foizga ortishi oziq ovqat mahsulotlari umumiy hajmining 0,26 foizga, sohaga kiritilgan investitsiyaning 1 foizga oshishi natijaviy belgining 0,84 foizga oshishi aniqlangan;

hudud oziq – ovqat sanoatining taraqqiyotini ifodalovchi muhim indikatorlarning o'rta muddatli 2025-2030-yillar uchun ko'p variantli prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

oziq – ovqat sanoatining rivojlanishi va asosiy tendensiyalarini modellashtirishning uslubiy jihatlari takomillashtirilgan;

Qashqadaryo viloyati oziq – ovqat sanoatining hozirgi holati, dinamikasi va rivojlanish tendensiyalarini baholovchi statistik ko‘rsatkichlar tizimi takomillashtirilgan;

Qashqadaryo viloyati oziq – ovqat sanoati rivojlanishining ko‘p omilli yempirik modellari tuzilgan;

ekonometrik modellarni qo‘llash asosida Qashqadaryo viloyati oziq – ovqat sanoati rivojlanishini ko‘p variantli prognozlari ishlab chiqilgan.

Olingan natijalarning ishonchligi. Tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, bunda rasmiy manbalar, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, xalqaro tashkilotlar statistik ma’lumotlaridan foydalanilganligi hamda tegishli xulosa va takliflar mas’ul tashkilotlar tomonidan mutasaddi tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy yetishga qabul qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati Qashqadaryo viloyati oziq – ovqat sanoatining rivojlanishini ekonometrik modellashtirishning nazariy-uslubiy jihatdan takomillashuvi, maqsadli ilmiy izlanishlarda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan Qashqadaryo viloyati oziq – ovqat sanoatini rivojlantirish hamda prognozlashda, sohani yanada samarali rivojlantirish bo‘yicha manzilli dasturlar ishlab chiqishda, shuningdek, nazariy va statistik materiallardan oliy ta’lim muassasalarida “Statistika”, “Ekonometrika asoslari”, “Iqtisodiy matematik modellar va usullar” kabi fanlarni o‘qitishda keng foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qashqadaryo viloyatida oziq-ovqat sanoatining rivojlanishini ekonometrik modellashtirish yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida:

oziq – ovqat sanoatini rivojlantirish maqsadida tarmoqni statistik tahlillari va modernizatsiyalashni mutanosiblik koeffitsiyenti $0 \leq \text{Prob}[X,Y] \leq 1$ asosida baholash usuli Qashqadaryo viloyati hokimligi faoliyatida foydalanilgan (Qashqadaryo viloyati hokimligining 2024-yil 28-dekabrda 07-07/12140-son ma’lumotnomasi). Ushbu uslubiyatdan foydalanish natijasida hududlarni modernizatsiyalash ko‘rsatkichlari shakllantirilgan;

oziq – ovqat sanoati tarmoq tendensiyasini prognozlashda multiplikativ $Y = e^{5,278} * X_1^{0,107} * X_2^{-0,152} * X_3^{0,609}$ ko‘p omilli empirik model Qashqadaryo viloyati hokimligi faoliyatida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qashqadaryo viloyati hokimligining 2024-yil 28-dekabrda 07-07/12140-son ma’lumotnomasi). Natijada viloyatda oziq – ovqat sanoatini rivojlantirish bo‘yicha uzoq muddatga mo‘ljallangan istiqbolli prognozlar ishlab chiqish, hududlarda oziq – ovqat sanoatini shakllanishini, hududiy-iqtisodiy o‘sish va raqobatbardoshlik darajasiga ta’sirini ekonometrik modellar yordamida prognozlash imkoniyatini bergan;

hududda oziq – ovqat sanoati tizimida mahsulot diversifikatsiyasi samaradorligini oshirishning tarkibiy o‘zgarishlar omili yordamida ishchilar sonining 1 foizga ortishi oziq ovqat maxsulotlari umumiy hajmining 0,26 foizga, sohaga kiritilgan investitsiyaning 1 foizga oshishi natijaviy belgining 0,84 foizga oshishi Qashqadaryo viloyati hokimligi faoliyatida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qashqadaryo

viloyati hokimligining 2024-yil 28-dekabrda 07-07/12140-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotda joriy qilinishi natijasida kelgusi ilmiy tadqiqot ishlarda Kobb-Duglasning ishlab chiqarish yempirik modeli mutanosiblik koeffitsiyenti statistik ko'rsatkichlar tizimini va ularning ekonometrik modellarini takomillashtirishga xizmat qilgan;

hudud oziq – ovqat sanoatining taraqqiyotini ifodalovchi muhim indikatorlarning o'rta muddatli 2025-2030-yillar uchun ko'p variantli prognoz ko'rsatkichlari Qashqadaryo viloyati hokimligi faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Qashqadaryo viloyati hokimligining 2024-yil 28-dekabrda 07-07/12140-son ma'lumotnomasi). Buning natijasida Qashqadaryo viloyatida oziq-ovqat sanoatining istiqboldagi rivojlanishini hisobga olib, hududdagi oziq-ovqat sanoatining ishlab chiqarish hajmi 2030-yilga borib 2023-yilga nisbatan 1,99 barobarga oshishi prognoz qilingan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 8 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Natijalarning ye'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ish, jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya yetilgan ilmiy jurnallarda 6 ta ilmiy maqolalar nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat bo'lib, umumiy hajmi 125 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obekti va predmeti tavsiflangan, respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy ishning yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi va amaliyotga joriy qilinishi ochib berilgan, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, ye'lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Oziq-ovqat sanoati rivojlanishining nazariy-uslubiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida oziq-ovqat sanoati rivojlanishining ilmiy-nazariy asoslari, oziq-ovqat sanoatini rivojlantirishning xorijiy tajribalari, oziq-ovqat sanoatining milliy iqtisodiyot va umumiy sanoatda tutgan o'rni yoritib berilgan.

O'zbekiston Respublikasida oziq-ovqat sanoatining rivojlanishining ilmiy-nazariy asoslari bir qator iqtisodiy, ijtimoiy va texnologiyaviy omillarga bog'liq bo'lib, ular mamlakat iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri bo'lgan qishloq xo'jaligiga va oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash sanoatiga bog'liqdir. Oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni samarali yo'lga qo'yish, ichki va tashqi bozorlarni rivojlantirishga qaratilgan dolzarb masalalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Amalga oshirilgan ilmiy-nazariy asoslar O'zbekiston respublikasida oziq-ovqat sanoati rivojlanishi uchun muhim yo'nalish, iqtisodiy modellar va texnologiyalardan iborat. Har bir yo'nalishdagi o'zgarishlar va rivojlanishlar sanoatning umumiy holatiga

va mamlakatning oziq-ovqat sanoatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ushbu tarkibiy qismlar bo'yicha respublikada va xududlar misolida mahalliy olimlar tomonidan ko'plab ilmiy tadqiqotlar va ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Bugungi kunda oziq – ovqat sanoatining rivojlanish tendensiyalarini ekonometrik baholash masalasining dolzarbligi ortib bormoqda, ayniqsa keyingi yillarda kuzatilayotgan iqtisodiy inqiroz natijasida jahon aholisini uzluksiz oziq - ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashning zaririyatini yanada oshirmoqda. Shu bilan birga oziq - ovqat sanoati O'zbekiston iqtisodiyoti uchun muhim ahamiyatga yega bo'lib, u asosan mamlakatimizda yetishtiriladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashga asoslangan. Mamlakatda oziq - ovqat sanoatini rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar asosida aholining yetarlicha sifatli oziq - ovqat mahsulotlarini iste'mol qilinishi ta'minlanayapti va mahsulotlar eksportga yo'naltirilyapti.

Ilmiy tadqiqotlar olib borgan maxalliy olimlarning tadqiqotlarida bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi oziq-ovqat sanoatida ishlab chiqarish hajmini ko'paytirishda eksport bozorlariga kirib borish muhim ahamiyatga yega. Lekin, eksportga mahsulot chiqarish jarayoni qishloq xo'jaligida ayrim xususiyatlarga yega. Bu birinchi navbatda oziq-ovqat mahsulotini ishlab chiqaruvchilarning tashqi bozorlarga mahsulot sotish uchun qanchalik darajada tayyor ekanligini belgilab beradi. Ya'ni, chetga sotiladigan mahsulotlarni sotish uchun tijorat vositachi korxonalar faoliyatisiz eksportni rivojlantirish masalasi juda muhim hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi kunda fermer xo'jaliklarida ham qayta ishlovchi korxonalar tomonidan ham oziq-ovqat mahsulotlari eksportini kuchaytirish uchun qiymat yaratish jarayonida "qiymat zanjiri"ning yeng oxirgi bo'g'ini sifatida oziq-ovqat mahsulotlari eksportiga ixtisoslashgan maxsus firma va kompaniyalarni tashkil etishga ehtiyoj juda katta. Buni quyidagi sabablar bilan izohlash mumkin:

iste'mol bozori to'g'risida axborotning yetishmasligi natijasida nimani kimga va qancha miqdorda ishlab chiqarish kerak degan savolga javob topish qiyin bo'lmoqda;

tashqi bozorlarda mahsulot sifatiga bo'lgan talab standart va sertifikat talabi ko'plab fermer xo'jaliklari va qayta ishlovchi korxonalar rahbarlaridan malakani talab qilmoqda. Bu masalani yechimi qishloq xo'jalik mahsulotlari eksportiga ixtisoslashgan maxsus firma va kompaniyalar tashkil etilishi hamda ularga mahsulotlarni standartlashtirish va sertifikatlashtirish vazifalarini hal etish majburiyatini qo'yish va maxsus firma va kompaniya rahbarlarini malakasini oshirish bilan xal qilinishi mumkin;

yetishtirilgan va ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash, yuklash va o'z vaqtida bozorga yetkazib berish tegishli infratuzilma, texnik vositalar va moliyaviy mablag'ga yega tijorat-vositachi korxonalar tomonidan amalga oshirilishi lozim. Bugungi kunda oziq-ovqat mahsulotini yetishtiruvchilar bunday imkoniyatlarga yega yemaslar. Bu yesa ularning ishlab chiqarishni yanada kengaytirish va daromad olish imkoniyatini cheklamoqda;

tijorat vositachi kompaniyalarni xususiy sektor ishtirokida yaratish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki, xususiy sektor ishtirokida tashkil yetilgan vositachi korxonalar bozor sharoitiga tez va oson moslashuvchan bo'ladi. Ularda foyda olish uchun motivatsiya kuchli bo'ladi va ortiqcha byurokratik to'siqlarsiz faoliyat yuritiladi;

tijorat vositachi korxonalariga oziq-ovqat mahsulotlarini xalqaro standartlarga moslashtirish va sertifikat olish vazifasini yuklash lozim. Sababi, bugungi kunda standartlashtirish va sertifikatlash muammosi malakali mutaxassislar, mablag‘, tajriba va ko‘nikma talab qiladi. Kerakli kadrlarni topish, uning yordamida halqaro tashkilotlar bilan sifat standartlari va sertifikatlarini olish masalasini muhokama qilish va shartnoma imzolab, hamkorlik qilish vositachi korxonalar uddasidan chiqadigan ish hisoblanadi;

O‘zbekistonda transport logistikasidan tashqari oziq-ovqat mahsulotlari eksporti uchun ombor logistikasini rivojlantirish o‘ta muhim. Ombor logistikasini rivojlantirmasdan turib, eksport hajmini ko‘paytirib bo‘lmaydi. Buguni kunda mamlakatimizda yetishtirilayotgan meva – sabzavot va poliz yekinlarining 30 foizi ularni terib yig‘ishtirib olish va saqlash jarayonida nobud bo‘lish yevaziga yo‘qotilmoqda.

Oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlik faoliyati samaradorligini va uning ishlab chiqarish hajmi bilan bog‘liq masalalarning ko‘p omilli jarayon ekanligini hisobga olgan holda tizimli baholash usullari asosida metodik yondashuvlar mavjud muammolarning yechimlarini topishda yordam berishi mumkin.

Respublikamizda mustaqillikka yerishilgan dastlabki davrlardan oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishga asosiy e‘tibor qaratildi, yani oziq-ovqat mustaqilligini ta‘minlash, aholiga uzluksiz va yetarli hajmdagi oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish davlatning fuqorolari oldidagi asosiy vazifalardan biri yetib belgilandi. Hozirgi kunda oziq-ovqat sanoati milliy iqtisodiyotning oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaradigan keng tarmoqli sohalaridan biri hisoblanib, uning tarkibida go‘sht, sut, yog‘-moy, baliq mahsulotlari, bug‘doy mahsulotlari, makaron, meva-sabzavot konservalari, sharbatlar, turli-tuman ichimliklar, shakar, qandolatchilik mahsulotlari, non va boshqa iste‘mol mahsulotlari ishlab chiqaradigan korxonalardan tashkil topgan.


Bugungi kunda jahonda, shuningdek, respublikamizda oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish, aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan yehtiyojini qondirish macalasi global muammolardan hisoblanadi. Ushbu muammo rivojlangan davlatlarda ham, shuningdek, endi rivojlanayotgan mamlakatlarda xam bir xil ahamiyatga yega.

Tadqiqot jarayonida viloyatdagi oziq-ovqat mahsulotlarining ishlab chiqarilishidan iste‘molchigacha bo‘lgan butun harakat zanjiri o‘rganildi va bu asosda ushbu zanjirning har bir bosqichi batafsil ishlab chiqildi. Jumladan, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining yetishtirilishi, ularni qayta ishlash, saqlash, logistika tizimi orqali taqsimlanishi, chakana savdo nuqtalariga yetkazilishi hamda oxirgi iste‘molchiga yetib borishi jarayonlari tizimli tarzda tahlil qilindi. Bu tahlillar asosida oziq-ovqat ta‘minoti zanjiridagi mavjud muammolar, resurslardan foydalanish samaradorligi, yo‘qotishlar miqdori va har bir bosqichdagi iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari aniqlanib, takomillashtirish yo‘llari ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra viloyat oziq-ovqat infratuzilmasi quyidagicha tarkibiy qismlarga ajratildi:

1. Ishlab chiqarish bosqichi;
2. Qayta ishlash va ishlab chiqarish;
3. Qadoqlash va saqlash;

4. Tashish va taqsimlash;
5. Chakana savdo va bozor;
6. Nazorat va muvofiqlashtiruvchi tizimlar;
7. Iste'molchi.



1-rasm. Viloyat oziq-ovqat mahsulotlarining ishlab chiqarishdan istemolchigacha bo'lgan harakat zanjiri.

Qashqadaryo viloyatida oziq-ovqat infratuzilmasi bo'yicha ishlab chiqarish bosqichi bo'yicha tahlili qilindi. Qashqadaryo viloyatu Respublikadagi yeng yirik agrar hududlardan biri bo'lib, uning iqlim-sharoiti dehqonchilik va chorvachilik uchun qulaydir. Viloyatda sug'oriladigan yerlar ko'pligi, ayniqsa paxta, g'alla, sabzavot-poliz, uzum va meva yetishtirishda ustunlikni ta'minlaydi. Viloyatda traktorlar, kombaynlar, yekish va o'rim-yig'im texnikalarining soni yil sayin oshib bormoqda. "Agrotexservis" korxonalarini orqali keng ko'lamli texnik xizmatlar ko'rsatilmoqda. Qarshi, Kitob, Kasbi tumanlarida yirik qishloq xo'jaligi kooperativlari mavjud bo'lib, ular zamonaviy texnika bilan jihozlangan. Viloyatda Amudaryo, Qashqadaryo daryolari va Nasaf kollektor-drenaj tarmog'i asosiy suv manbalari hisoblanadi. Viloyatda 20 ming gektardan ortiq maydonlarda tomchilatib sug'orish texnologiyalari joriy yetilgan. Viloyatda urug'-naslchilik markazlari (masalan, Qarshi tumanidagi "Agro urug'" xo'jaligi) faoliyat yuritadi. Sabzavot va mevali daraxtlar uchun ko'chat yetishtiruvchi issiqxonalar soni yil sayin ortib bormoqda. "Uzagrokimyohimoya" tarmoqlari orqali o'g'it va pestitsidlar yetkazib beriladi. Dehqon va fermerlar uchun subsidiya asosida mineral o'g'itlar taqdim yetiladi. Tumanlarda "Agrotexnologiyalar markazi", "Fermerlar maktabi" kabi ko'makchi markazlar faoliyat yuritmoqda. Fermerlarga agroxizmatlar, texnik ko'mak, moliyaviy maslahatlar berilmoqda. "Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish" davlat dasturi

asosida Qashqadaryoda ishlab chiqarish infratuzilmasi jadal rivojlanmoqda. Xalqaro moliya institutlari ishtirokida (masalan, Jahon banki, OPEK jamgʻarmasi) melioratsiya va texnika yangilash loyihalari amalga oshirilmoqda. “Agrotexklaster”lar tashkil yetilmoqda — bu klasterlar doirasida ishlab chiqarishdan tortib qayta ishlashgacha boʻlgan zanjir shakllanmoqda. Qashqadaryo viloyatining ishlab chiqarish infratuzilmasi respublikada yetakchi oʻrinlardan birini yegallaydi. Ammo ayrim tumanlarda texnik eskirish, suv resurslarining yetishmovchiligi va agroxizmatlar sifati bilan bogʻliq muammolar mavjud. Shu sababli infratuzilmani zamonaviylashtirish va raqamlashtirish ustuvor yoʻnalish hisoblanadi.

1-jadval.

1. Ishlab chiqarish bosqichi (xomashyo yetishtirish)			
Fermer xoʻjaliklari va dehqonlar	Agrofirmalar va agrosanoat korxonalar	Iqlim va sugʻorish tizimlari (melioratsiya)	Agrokimyoviy xizmatlar (oʻgʻitlar, pestitsidlar)
2. Qayta ishlash va ishlab chiqarish			
Oziq-ovqat sanoat korxonalar	Texnologik uskunalar va liniyalar	Sifat nazorati laboratoriyalari	Veterinariya-sanitariya nazorati
3. Qadoqlash va saqlash			
Qadoqlash uskunalar (avtomatlashtirilgan liniyalar)	Saqlash infratuzilmalari (sovutkichlar, omborlar)	Logistika tizimlari	HACCP va ISO tizimlari (sifat va xavfsizlik)
4. Tashish va taqsimot			
Transport infratuzilmasi (avto, temiryoʻl, sovutkichli transport)	Logistika markazlari	Mahsulotni kuzatish tizimlari (QR-kod, GPS)	Taqsimlash markazlari
5. Chakana savdo va bozor			
Supermarket tarmoqlari, oziq-ovqat doʻkonlari	Bozorlar	Onlayn savdo platformalari (ye-commerce)	Marketing va reklama tizimlari
6. Nazorat va muvofiqlashtiruvchi tizimlar			
Oʻzstandart, Sanitariya xizmati, Veterinariya qoʻmitasi	Litsenziyalash va sertifikatlash tizimlari	Monitoring va audit tizimlari	Ekologik va halol mahsulot tizimlari
7. Isteʼmolchi			
Aholi	jamoat ovqatlanish tizimlari (maktablar, oshxonalar)	Tahliliy xizmatlar (isteʼmolchi fikri, baholash)	Mahsulot sifati boʻyicha shikoyat va javob tizimi

Qashqadaryo viloyatida agroklastlar tizimi agrar sohani modernizatsiya qilish, resurslardan samarali foydalanish va qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining qiymat zanjirini toʻliq shakllantirishda muhim rol oʻynamoqda. 2024-yil holatiga koʻra, viloyatda jami 77 ta agroklaster faoliyat yuritmoqda, ularning yoʻnalishlari quyidagicha taqsimlangan:

- 18 ta paxta-toʻqimachilik klasteri;

- 28 ta g'allachilik klasteri;
- 31 ta meva-sabzavotchilik va boshqa yo'nalishdagi klasterlar.

Ushbu klasterlar viloyatdagi 293 369 gektar yer maydonida faoliyat yuritib, 34 271 ta fermer xo'jaligini o'z ichiga oladi.

Paxta-to'qimachilik klasterlari: paxta yetishtirishdan boshlab, uni qayta ishlash va tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha bo'lgan bosqichlarni o'z ichiga oladi. Masalan, "Koson Baxt Textile" MCHJ, "Oqsaroy Cluster" MCHJ va "Bunyodkor" MCHJ kabi korxonalar ushbu yo'nalishda faoliyat yuritmoqda.

G'allachilik klasterlari: G'alla yetishtirish, uni saqlash va qayta ishlash bilan shug'ullanadi. Bu klasterlar oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga yega.

Meva-sabzavotchilik klasterlari: Meva va sabzavot yetishtirish, ularni qayta ishlash va eksport qilish bilan shug'ullanadi. Bu klasterlar eksport salohiyatini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Viloyatda agroklasteralar tomonidan 2022-yilda 483,4 milliard so'mlik 14 ta investitsiya loyihasi amalga oshirilib, natijada 4 ming nafarga yaqin ish o'rni yaratilgan.

Qashqadaryo viloyatida agroklasteralarga 34,5 ming gektar yer ijara huquqi asosida, shartnomasi asosida 258,7 ming gektar maydon ajratilgan. Bu yerlar suv resurslari bilan ta'minlanib, agroklasteralar tomonidan samarali boshqarilmoqda.

Qashqadaryo viloyatidagi agroklasteralar qishloq xo'jaligi sohasini modernizatsiya qilish, mahsulotlar sifatini oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish va yangi ish o'rinlari yaratishda muhim rol o'ynamoqda. Ularning faoliyati viloyat iqtisodiyotining barqaror o'sishiga xizmat qilmoqda.

Dissertatsiyaning «**Oziq-ovqat sanoatini rivojlantirishning ekonometrik tahlili**» deb, nomlangan ikkinchi bobida oziq-ovqat sanoati rivojlanish dinamikasining statistik tahlili, oziq - ovqat sanoatida tarkibiy o'zgarishlarini modellashtirish, oziq - ovqat sanoati ishlab chiqarish hajmini modellashtirish buyicha ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Mamlakatimizda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim omiliga aylanmoqda. Bunday iqtisodiy o'sishga yerishishda, avvalambor, keng ko'lamli tizimli bozor islohotlarini joriy yetish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va yangilash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, texnik va texnologik yangilashga qaratilgan kreditlash hajmini oshirish va bu jarayonlarda modellashtirish usullaridan foydalanish muhim vazifalardan hisoblanadi.

Oziq-ovqat sanoati har qanday davlat iqtisodiyotida strategik ahamiyatga yega bo'lib, uning rivojlanishi xalq farovonligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Sanoq va tahlillarsiz bu sohani samarali boshqarish va kelajakdagi rivojlanishni aniq bashorat qilish qiyin. Shu sababli, oziq-ovqat sanoati rivojlanish dinamikasining statistik tahlili juda muhim hisoblanadi. Shuningdek oziq-ovqat sanoati mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, umumiy yalpi ichki mahsulot (YAIM) ko'rsatkichlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Statistik tahlil orqali ishlab chiqarish hajmi, qo'shilgan qiymat, resurslardan foydalanish darajasi kabi ko'rsatkichlar aniqlanadi. Bu ma'lumotlar iqtisodiy siyosatni shakllantirishda va tarmoqni yanada samarali rivojlantirishda foydali bo'ladi.

Statistik tahlil oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash orqali iste'molchilar talablari va ishlab chiqaruvchilar imkoniyatlari o'rtasidagi balansni ta'minlash uchun kerakli chora-tadbirlar ishlab chiqiladi. Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari zaxirasini baholash va ichki bozorni import mahsulotlariga qaramlikdan himoya qilish choralari ko'riladi.

Har qanday tarmoqni rivojlantirish uchun uning bugungi holatini tushunish lozim. Statistik tahlil orqali oziq-ovqat sanoati tarmoqlari hajmlari, hududiy rivojlanish darajasi va muammolari aniqlanadi. Bu ma'lumotlar asosida samarali rivojlanish strategiyalari ishlab chiqiladi, masalan, yuqori texnologik ishlab chiqarish yoki eksportga yo'naltirilgan mahsulotlarning ulushini oshirish.

Tadqiqot natijasida olinadigan oziq-ovqat sanoatiga oid statistik ma'lumotlar ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirishda muhim manba hisoblanadi. Yangicha modellar va metodlar ishlab chiqish, innovatsion texnologiyalarni joriy qilish va ishlab chiqarishni optimallashtirish uchun aynan statistik tahlil natijalariga asoslaniladi.

Oziq-ovqat sanoatining hududlar kesimida statistik tahlilini amalga oshirish, uning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, hududiy jihatlarini inobatga olgan holda istiqbolli yo'nalishlarni belgilash oziq-ovqat sanoati taraqqiyotini yangi pag'onaga ko'tarishda o'z yechimini kutayotgan masalalardandir. Buni inobatga olgan holda ilmiy tadqiqot ishining mazkur paragrafida Qashqadaryo viloyatida oziq-ovqat sanoatining rivojlanish dinamikasining statistik tahlilini amalga oshirish maqsadga muvofiq deb xisoblandi.

Dastavval Qashqadaryo viloyatida oziq-ovqat sanoatining mavjud holatini statistik ma'lumotlarga tayangan holda qisqacha tavsiflab o'tadigan bo'lsak, 2024-yilning 1-yanvar holatiga faoliyat ko'rsatayotgan oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish faoliyat turidagi yuridik shaxslar soni 4921 tani tashkil qiladi. 2023-yilda viloyatda oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 3194 mlrd sumni tashkil yetdi. Shuningdek viloyatdagi oziq-ovqat sanoatida band bo'lgan ishlovchilar soni 108,9 mingni tashkil yetdi. Keltirilgan tahlillardan ma'lum bo'lishicha Qashqadaryo viloyatida oziq-ovqat sanoati muhim iqtisodiy ko'rsatkichlarni shakllantirishdagi ulushi yetarli darajada katta miqdorga yega. Biroq oziq-ovqat sanoatining barqaror taraqqiyotini ta'minlashda viloyatning hududiy birliklaridagi taraqqiyot darajasi hamda ularning bir-biridan farqi muhim ahamiyat kasb etadi.

Viloyatda qishloq xo'jaligi yerining umumiy maydoni **2 322 754** gektarni tashkil yetadi. Umumiy yekin maydoni – **362 871** gektar.

Hozirgi kunda Qashqadaryo viloyatida **34** ta agroklaster faoliyat ko'rsatmoqda. Shundan **13** tasi paxtachilik-to'qimachilik, **15** tasi g'allachilik va **6** tasi meva-sabzavotchilik klasterlari.

Viloyatda **12 339** ta fermer xo'jaligi va **462 606** ta dehqon xo'jaliklari mavjud. **353,9** gektar maydon **382** ta fermer xo'jaligi tomonidan issiqxonalarga taqsimlangan.

Ayni paytda **131** ta fermer xo'jaligiga **3 213** gektar yer intensiv bog'lar uchun ajratib berilgan.

Asosiy yerlarning maydoni – **381 875** gektar. Shundan:

- vaqtinchalik yoshlarga ajratiladigan yerlar – **34 517** gektar;
- texnik yekinlar (paxta) – **135 900** gektar;
- g'alla yekinlari – **140** ming (bug'doy – **137 000** gektar, arpa – **3 000** gektar);
- ozuqabop makkajo'xori – **2 450** gektar;

- dukkaklilar – **15 308** gektar (no‘xat – **6 490** gektar, mosh – **4 850** gektar, loviya – **1896**) fasol – **1 310** gektar, yeryong‘oq – **756** gektar);
- moyli yekinlar – **17 722** gektar (soya – **15 000** gektar, kungaboqar – **1 972** gektar, kunjut – **750** gektar);
- sabzavotlar – **9 744** gektar, ulardan piyoz – **1 862** gektar, sarimsoq – **1 078** gektar (avgust-sentabr uchun yekish);
- sabzi – **1 422** gektar, lavlagi – **161** gektar, ko‘katlar – **1 000** gektar, ukrop – **468** gektar, petrushka – **522** gektar, ko‘kpiyoz – **10** gektar, karam – **494** gektar (gulkaram – **161** gektar, brokkoli – **145** gektar, karam – **188** gektar) (to‘qsonbosti usulida);
- pomidor – **69** gektar, bodring – **57** gektar, ko‘katlar – **4** gektar (issiqxonalarda);
- pomidor – **373** gektar, bodring – **455** gektar, sabzi – **727** gektar, piyoz – **503** gektar, sarimsoq – **323** gektar, karam – **319** gektar, (gulkaram – **91** gektar, karam – **228** gektar), ko‘katlar – **378** gektar, ukrop – **195** gektar, petrushka – **178** gektar, ko‘kpiyoz – **5** gektar, bulg‘or qalampiri – **281** gektar, qalampir – **156** gektar, sholg‘om – **80** gektar (bahorda asosiy yekin yerlarida);
- poliz yekidlari – **3 478** gektar (tarvuz – **1 760** gektar, qovun – **479** gektar, qovoq – **1239** gektar); kartoshka – **3 968** gektar;
- ozuqabop yekinlar – **45 379** gektar; past ball bonitetli ko‘p yillik daraxtlar – **7 926** gektar (mevali daraxtlar – **3 000** gektar (danaklilar – **3000** gektar);
- uzumzorlar – **2 700** gektar, tutzorlar – **2 700** gektar.

Milliy iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, xususan, mamlakatimiz yuqori texnologiyali tarmoqlarida tarkibiy o‘zgarishlarni chuqurlashtirish, shuningdek, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish kabi masalalarga alohida ye’tibor mavjud bo‘lib, bunda yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini, yeng avvalo mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida qo‘shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni jadal rivojlantirishga qaratilgan sifat jihatdan yangi bosqichga o‘tkazish orqali sanoatni yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilish kabi vazifalarni amalga oshirish alohida iqtisodiy ahamiyat kasb yetadi.

Shuning uchun ham mazkur tadqiqotda oziq-ovqat sanoati tarmog‘idagi tarkibiy o‘zgarishlarni baholash va undagi muhim miqdoriy o‘zgarishlarni tadqiq yetish masalalariga asosiy ye’tibor qaratilgan. Tadqiqotda oziq-ovqat sanoati ishlab chiqarishidagi tarkibiy o‘zgarishlarni baholash masalasi “mutanosiblik koeffitsiyenti” hamda takomillashtirilgan “Liliyen indeksi” kabi usullar yordamida amalga oshirilgan.

Ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, oziq-ovqat sanoatidagi tarkibiy o‘zgarishlarni miqdoriy baholash masalalari va uning iqtisodiy jihatlari yetarlicha izlanish olib borilmagan. Lekin, milliy iqtisodiyot va uning tarmoq tarkibida kechayotgan tarkibiy o‘zgarishlar hamda ularning kelib chiqish sabablari qo‘yilayotgan masalaga nisbatan aniqroq yoritilgan.

To‘xtalib o‘tish kerakki, ko‘pgina tadqiqotlarda "tarkibiy o‘zgarish" tushunchasiga nisbatan statistik yondashuvlar juda keng tarqalganligi ko‘zga tashlanadi. Ayniqsa, bunday yondashuvlar T.N Agapova, A. Buz-Galina, K. Gatev, M.R.Yefimova, V.K. Zadorojniy, L.S. Kazins, A. Kolganov, O. Y. Krasilnikova, S.V.


Kuryshva, V.M. Ryabseva, A. Salay, M.M. Yuzbasheva va M.Lendesmen asarlarida juda keng o‘rin yegallagan bo‘lib, buning asosiy sababi iqtisodiy hodisalarning makon va zamondagi o‘zgarishlarini tadqiq yetish statistika fanining asosiy predmeti yekanligidadir.

Ilmiy va iqtisodiy adabiyotlarda tarkibiy o‘zgarishlarni tavsiflash va baholash yuzasidan turli xil yondashuvlar mavjud. Bulardan biz tadqiqot xususiyatini inobatga olgan holda P.Vatnik tomonidan taklif yetilgan “mutanosiblik koeffitsiyenti” foydalandik va u quyidagicha topiladi.

$$Prob[X, Y] = \frac{(\sum i X_i Y_i)^2}{(\sum i X_i^2)(\sum i Y_i^2)} \quad (1)$$

П.Ватникning “mutanosiblik koeffitsiyenti” turli tarkib yoki to‘plamlarni baholash imkoniyatini beradi va ushbu koeffitsiyent quyidagilar bilan xarakterlanadi: ixtiyoriy uchun $a, b > 0$ uchun $Prob[aX, bY] = Prob[X, Y]$ tenglik o‘rinli bo‘ladi; mutanosiblik koeffitsiyentining barcha mumkin bo‘lgan qiymatlari $0 \leq Prob[X, Y] \leq 1$ oraliqda yotadi.

Izlanishning tahlillariga ko‘ra, 2010 – 2023-yillar oralig‘ida ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlovchi sanoat) tarkibida asosiy oziq - ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 16.1-29.28 foiz oralig‘ida turlicha rivojlanish tendensiyasiga yega bo‘ldi. Qayta ishlovchi sanoat mahsulotlari tarkibida asosiy oziq - ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi o‘zining yeng quyi ko‘rsatkichi 2019-yilda (mazkur tarkibdagi ulushi 16.1 foiz) tashkil yetgan bo‘lsa, 2016-yilda yesa, mazkur tarkibda yeng yuqori ko‘rsatkichni 29.29 foizni tashkil yetdi (3-rasm).



3-rasm. Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida asosiy oziq - ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi (foizda)

O‘zbekiston Respublikasini 2030-yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish Konsepsiyasida ta’kidlanishicha ulkan o‘shish maqsadlarini hisobga olgan holda, unda milliy iqtisodiyot moslashishi, o‘rta texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarishni rivojlanishi, integratsiya va innovatsion iqtisodiy o‘shish modeliga o‘tish

bosqichlarini amalga oshirish uchun ishlab chiqarish sanoatiga jiddiy ye'tibor berish juda muhim hisoblanadi. 2024-yil yakuniga ko'ra, O'zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 103,7 trillion so'mni tashkil yetdi. Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishining umumiy sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi taxminan 11,7% ni tashkil yetgan. Bu ko'rsatkich oziq-ovqat sanoatining mamlakat iqtisodiyotidagi muhim o'rnini ko'rsatadi.

Konsepsiyada ko'rsatilishicha sanoatning lokomotiv tarmoqlaridan biri bo'lgan oziq-ovqat sanoatini 2030-yilga kelib uning ulushi 130 foizga o'sishi rejalashtirilgan. Oziq-ovqat sanoatini rivojlanish tendensiyasini Kobb-Duglasning ishlab chiqari funksiyasidan foydalangan holda yempirik tahlilni amalga oshiramiz.

Ishlab chiqarish funksiyasi xarajatlar va ishlab chiqarishlar o'rtasidagi miqdoriy bog'liqlikni ta'minlaydi. Iqtisodchilar Kobb-Duglasning ishlab chiqarish funksiyasini $(L) L$ shaklida ishlatishni ma'qul ko'riladi, bu yerda – ishlab chiqarish hajmi, – kapital va L – ishchi kuchi, L chunki u iqtisodiyotni nisbatan aniq tavsifini ta'minlaydi va algebraik jihatdan ishlash juda oson. Ushbu funksiyaning mashhurligi aslida, bu oson matematik manipulyatsiya uchun javobgardir va ishlab chiqarish funksiyasiga qo'yilgan cheklovlarni qondiradi. Bu cheklovlar:

har ikkila iqtisodiy omil ham ishlab chiqarish uchun muhim, shuning uchun ham bu ikkala o'zgaruvchisiz biror bir mahsulot ishlab chiqarilmaydi;

har bir qilingan xarajatda ijobiy mahsulot ishlab chiqariladi;

har bir xarajattan foydalanishning oshishi bilan qo'shimcha mahsulot kamayadi;

bir xarajattan ishlab chiqilgan qo'shimcha mahsulot boshqa foydalanilayotgan xarajatni ham oshishiradi.

Hozirgi kunda, tadbirkorlar, shuningdek, ishlab chiqaruvchilar nima mahsulot ishlab chiqarish, qancha ishlab chiqarish va ularni qanday ishlab chiqarish bilan bog'liq to'g'ri qarorlar qabul qilish maqsadida firma istiqboli haqida juda xavotirda. Bu qarorlarning barchasi bevosita firmaning faoliyat ko'rsatishi lozim bo'lgan xarajat mulohazalari va bozor vaziyatlari bilan bog'liq. Shu munosabat bilan ushbu tadqiqot O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlarning yirik sanoat tarmoqlari uchun ishlab chiqarish jarayonining yeng mos funksional shaklini taklif qilishda yordam berishi kerak. Ushbu tadqiqot mamlakatimizning oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish tarmog'i uchun Kobb-Duglas ishlab chiqarish funksiyasini yempirik tarzda tahlil qilindi.

M.S. Hossain va A.N.Islamlar o'z izlanishlarida janubi-g'arbiy Bangladesh mintaqasining ishlab chiqarish sektorini tanlashgan va ishlab chiqarish samaradorligini, taqsimlash samaradorligini va o'lchov samaradorligini hisoblash uchun Kobb-Duglas ishlab chiqarish funksiyasidan foydalanishgan. Tadqiqotlarida sement, jun va to'qimachilik ishlab chiqarish firmalarining o'sishi kamayganligini ko'rsatgan, o'g'itlar va dengiz mahsulotlarini qayta ishlaydigan firmalari yesa o'sishi ko'payganligi ta'kidlashgan. Ishlab chiqarish samaradorligi va taqsimot samaradorligining hisoblangan qiymati barcha ishlab chiqarish firmalarining mehnat unumdorligi kapital unumdorligidan yuqori yekanligini ko'rsatgan. Agar sarmoyadorlar mehnatni talab qiladigan texnikaga sarmoya kiritsalar, ular investitsiyalardan ijobiy foyda kutishlari mumkin.

Tadqiqot usullari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligidan olingan ma'lumotlardan tahlil qildik. 2010-2023-yillar uchun oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish, "Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish" faoliyat turidagi yuridik shaxslarda ishlovchi xodimlar soni va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishga kiritilgan investitsiyalar haqidagi ma'lumotlar to'plandi.

Kobb-Duglas ishlab chiqarish funksiyasining stokastik shakli quyidagicha ifodalandi:

$$Y = F(K, L) = A K^a L^b e^u \quad (2)$$

Bu yerda, Y - ishlab chiqarish hajmi, K - kapital, L - mehnat, U - stoxastik xatolik chegarasi, e = natural logarifm asosi.

Bu tenglamadan ko'rinib turibdiki, ishlab chiqarish va ikki xarajat orasidagi munosabat nochiqli. Biroq bu modelni natural logarifmlash orqali chiziqli ko'rinishda o'zgartirib hisoblanadi

Kapital kiritishga nisbatan a ishlab chiqarishning (qisman) yegiluvchanligini b va butun oziq-ovqat tarmoqlari uchun mehnatga nisbatan qisman yegiluvchanligini o'rganish uchun yempirik tahlil amalga oshirildi.

Dissertatsiyaning "Qashqadaryo viloyatida oziq-ovqat sanoati rivojlanishining prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqish" nomli uchinchi bobida oziq-ovqat sanoati rivojlanishini ekonometrik modellar asosida baholash, oziq-ovqat sanoati rivojlanishini ko'p omilli yempirik modellar asosida prognozlash, Qashqadaryo viloyatida oziq-ovqat sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari va istiqbollari bo'yicha tadqiqotlar amalga oshirildi.

Qashqadaryo viloyatida oziq-ovqat sanoati rivojlanishining trend modellar asosida baholash bir nechta to'plam yelementlari o'rtasidagi bog'lanishlarni solishtirish imkonini beradi. Bu jarayonlar bo'yicha vaqtli qatorlarning trend modellarini tuzish, iqtisodiy hodisalar hamda jarayonlar o'rtasida bog'lanishlarning miqdoriy yechimlarini korrelyatsiya koeffitsiyentlari orqali aniqlash, iqtisodiy rivojlanishining regression modellarini tuzish, oziq-ovqat sanoati rivojlanish jarayonlarini trend modellari orqali baholash va prognoz qilishni nazarda tutadi.

Prognoz qiymatlarini ishlab chiqish uchun dastavval tuzilgan ekonometrik modelni qator mezonlar asosida baholagan holda uni o'rganilayotgan jarayonga mos keluvchi yeng yaxshi model yekanligini asoslash lozim bo'ladi va keyinchalik bu model asosida viloyatda oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha asosiy ko'rsatkichlarini kelgusi yillar uchun prognoz qiymatlarini ishlab chiqish mumkin bo'ladi.


Tadqiqotimiz obekti bo'lgan Qashqadaryo viloyatida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmiga omillari ta'sirini qarab chiqildi. Buning natijasida ishlab chiqarish omillarini prognoz qiymatlarini turli ekonometrik modellar asosida amalga oshirgan holda ularga mos keluvchi Qashqadaryo viloyatida oziq-ovqat sanoati tomonidan mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmining prognoz ko'rsatkichlari aniqlandi.

